

XADICHA SULAYMONOVA – O`ZBEK XALQINING HUQUQSHUNOS AYOLI

Ne'matova Charosxon Nusratovna

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy huquq fakulteti 2-kurs talabasi

Kalit so'zlar: adliya, oliy sud, huquqshunos, karvonsaroy, Sho`rolar hukumati, „bosmachilar” harakati, sovet qurilishi va sotsialistik multk, jinoyat huquqi, aspirant, Kriminalistika ilmiy-tadqiqot labaratoriysi, sud ekspertizasi ilmiy-tadqiqot instituti.

Annotatsiya: Ushbu maqola O`zbekistonning ilg'or ayol huquqshunosi Xadicha Sulaymonovaning e'tiborga loyiq hayoti va faoliyatini yoritadi. Unda uning O`zbekiston huquq tarixi rivojlanishiga qo'shgan ulkan hissasi, xususan, O`zbekistonda yurisprudensiya bo'yicha ilmiy daraja olgan birinchi ayol sifatidagi o'rni tahlil qilinadi. Maqolada Sulaymonovaning ilmiy yutuqlari, Adliya vaziri va Oliy sud raisi lavozimlaridagi xizmati, shuningdek, huquqshunoslik sohasida ayollar huquqlarini himoya qilishdagi faoliyati ko'rib chiqiladi. Sulaymonovaning inqilobiy ishlarini yoritish orqali, ushbu maqola kelajak avlod ayol huquqshunoslarini ilhomlantirish va uning O`zbekiston jamiyatiga ko'rsatgan doimiy ta'sirini e'tirof etishni maqsad qiladi.

Ключевые слова: юстиция, верховный суд, юриспруденция, караван-сарай, правительство Советов, движение "басмачей," советское строительство и социалистическая собственность, уголовное право, аспирант, Научно-исследовательская лаборатория криминалистики, Научно-исследовательский институт судебной экспертизы.

Аннотация: В данной статье освещается заслуживающая внимания жизнь и деятельность передовой женщины-юриста Узбекистана Хадичи Сулеймановой. В нем анализируется ее огромный вклад в развитие истории права Узбекистана, в частности, роль первой женщины в Узбекистане, получившей ученую степень по юриспруденции. В статье рассматриваются научные достижения Сулеймановой, ее заслуги на должностях министра юстиции и председателя Верховного суда, а также деятельность по защите прав женщин в области юриспруденции. Освещая революционные труды Сулеймановой, данная статья направлена на вдохновение будущего поколения женщин-юристов и признание их постоянного влияния на общество Узбекистана.

Xadicha Sulaymonovning tug`ilib o`sgan diyori va uning huquqshunoslikka ilk qiziqishlari.

So`zimni davlatimiz rahbari **Shavkat Mirziyoyevning** iqtiboslari bilan boshlayman: “Bir haqiqat ayonki, har qanday xalqning ma`naviy darajasini avvalo, shu yurt ayollarining ma`naviy saviyasi belgilaydi”. Bugun O`zbekistonning huquq tizimiga o`zining salmoqli hissasini qo`shgan Xadicha Sulaymonovning hayot va ijod yo`li haqida hikoya qilamiz...

1913-yilning yoz kunlarida – iyulning uchinchi kunida Sulaymon Kelginboyevning uyida qiz farzand dunyoga keldi. U qizning kelajakda huquqshunos olma, Adliya vaziri, Oliy sud raisi bo`lishi esa otasi Sulaymon va onasi Otinchaning xayoliga ham kelmagan bo`lsa kerak. Bu farishtadek chaqaloq esa O`zbekiston faxri, birinchi o`zbek huquqshunos ayoli Xadicha edi.



Uning otasi Sulaymon aka karvonsaroyda ishlar edi. U butun Turkiston bo`ylab sayyoqlik qilar, uzoq-yaqindan kelgan sayyoohlarni kutib olish, joylashtirish, ijara haqi masalalarida o`zi bosh-qosh bo`lar edi. U inson juda mehnatkash, qobiliyatli va ishchan bo`lgan. Hattoki turkman, qozoq, qizg`iz, tojik, ayniqsa, rus tilini mukammal bilgan. Shuning uchun boshliqlari tomonidan doimo e'tirofda bo`lgan. Uning shu xislatlari qizi Xadichga ham o`tgan edi. Biroq Sulaymon Kelginboyev Oktyabr inqilobidan so`ng Sho`rolar hukumati tarafida qo`liga qurol olib kurashdi. Farg`ona vodiysida paydo bo`lgan „bosmachilar”ga qarshi kurashda halok bo`ldi. Uch farzand esa otasidan erta judo bo`ldi. Ammo Otincha aya umr y`oldoshini yo`qotgan bo`lsa ham o`zini yo`qotmadi, farzandlarining baxt-kamoli uchun qattiq kuch-quvvat sarfladi, oilada ham ota, ham ona vazifasini bajardi.

O`z zimmasiga farzandlari tarbiyasi bilan birga ta'lif olishini ham ta'minlab berishni olgan Otincha ularning savod olishi uchun jon-jahdi bilan harakat qildi. Xadicha katta akasi Yusupjon, opasi Mo'tabar va kichik ukasi Niyoz bilan birga maktabga bordi. ularning hammasi bir sinfda o`qirdi. Chunki, sho`rolar hokimiyatining dastlabki davrlarida har xil yoshdagi bolalar bir sinfda birgalikda savod chiqarishgan. Yolg`iz ona bolalariga har doim ularning otasi haqida so`zlab berar, bolalar esa uni maroq bilan tinglab, shunday otaning farzandi ekanliklaridan g`ururlanishardi.

1920-1930-yillar O`rta Osiyo ayollari hayotida o`chmas iz qoldirdi desak adashmagan bo`lamiz. Chunki bu yillarda xotin-qizlarning to`liq ozodlikka erishish uchun ommaviy ravishda siyosiy kampaniya o`tkazila boshlangan. 1926-yilda avj olgan harakatga „Hujum“ nomi berilgan. Buning asosiy maqsadi ayollarning ijtimoiy faolligini kuchytirish va ularning ko`cha kiyimi bo`lgan paranjini yo`qotish bo`lgan. Ko`plab ayollar, qizlar paranjini tashlagan, komsomolga kirgan va savodsizlikni tugatish kurslariga qatnay boshlagan. Bu esa barcha erkaklarga ham birdek manzur bo`Imagan. Ular bu harakatga qarshi odam o`ldirishdan ham qaytmagan. Ikki yil ichida paranjisini tashlagan 2500 nafar ayol o`z yaqinlari tomonidan vahshiyarcha o`ldirilgan. Ilk qurbanlardan biri Farg`ona yaqinidagi O`rmonzor qishlog`ida yashovchi Sirmaxon Shermatova o`z eri tomonidan o`ldrilgan. Shuningdek, Ochilxon Sodiqova, Adolatxon, Nurxon Yo`Idoshxo`jayeva kabi ayollarning boshiga ham shunday o`lish nasib etgan. Nurxonning sud ishi Marg`ilonda bo`lib, unda 17 yoshli Xadicha ham qatnashgan. U sud ishida qatnashar ekan, ich-ichidan huquqshunoslik kasbiga mehr uyg`ongan. Sudda qoralovchi sifatida qatnashgan Tojixon Shodiyevaning qat'iyat bilan gapirganidan ta'sirlanib onasiga u ham kelajakda huquqshunos bo`lishini aytgan, onasi ham uning fikrini qo`llab-quvvatlagan.

Xadichaning bolaligi, yoshligi Andijonda o`tdi. Shu yerda 1931-yili to`qqiz yillik rus makatbini tamomlaydi. Yurist bo`lish haqidagi orzusi uning dilida bir bahya ham so`nmadi. O`qishga kirish maqsadida tayyorlov kursiga bordi, u yerda bir yil davomida puxta tayyorlanib, Toshkentda endigina ochilgan Jalon Obidova nomidagi Sovet qurilishi va huquq instituti huquq fakultetining ikkinchi kursiga o`qishga kirdi.

O`zbekistonda oliy yuridik ta'lifni rivojlantirishda ulkan hissa qo`shgan bu institutda dars berish maqsadida chet davlatlardan professorlar tashrif buyurishgan, xususan, Moskva va Leningraddan I.I.Krilov, I.N.Trepitsin kelishgan. Xadicha bu ustozlardan ta'lif olish bilan birga jamoat ishlariga

ham faol qatnashgan va o`zini har sohada ko`satib tezda universitetning oldi talabalaridan bo`lish nasib etgan.

O`sha davrda yosh huquqshunoslar uchun M.Mo`minov davlat va huquq nazariyasi bo`yicha, B.L.Manelis esa sovet qurilishi va sotsialistik mulk masalasiga oid ilmiy ish qildi. Xadicha bu o`quv qo`llanmalarni o`qish bilan cheklanib qolmadi. Huquq sohasiga oid har bir kitobni qayta-qayta o`qib , tushunarsiz atamalarni enskilopediyalardan ma`nosini izlab topdi, kerakli joylarini esa daftariga konspekt qildi va ustozlar, markaziy shaharlardagi yuridik oliy o`quv yurtlarni tamomlab kelgan aspirantlar bilan muntazam suhbatda bo`lar edi.

Xadicha yoshligidan jinoyat huquqi borasida mutaxassis bo`lishni maqsad qilub qo`ygan edi. Biroq o`sha davrlarda ayol kishining tergovchi, sudya bo`lib yetishishi ko`pchilik uchun erish tuyulardi. Xadicha esa faqat erkaklargina emas, balki ayollar ham xavfli jinoyatchilarni so`roq qila olishi, jinoyatchining aybini bo`yniga qo`ya olishi, qonunga ko`ra hukm chiqarishi mumkinligini isbot qildi.

U o`zi tanlagan mutaxassislik bo`yicha institutni tamomladi. Uning talabalik yillari ma`ruza, amaliy mashg`ulot, ilmiy va badiiy havaskorlik to`garagiga ishtirok etish , sessiyalar, jamoat ishlariga qatnashish bilan qizg`in o`tdi.

1935-yilning sentabrida Sovet qurislishi va huquq institutida birinchi marta yurist kadrlar yetishib chiqqanligiga bag`ishlab katta tantana o`tkazilishi rejalashtirilgan edi. Talabalar, o`qituvchi-professorlar, institut rahbarlari, ayniqsa bitiruvchilar qattiq hayajonda edi. Xadicha ham jamoat ishlari bilan band, ildam harakat qiladi. Tantana kechaning yaqinlashgani sayin u yurak-yurakdan o`ziga „Bugun menha diplom berishadi. Bugun men hayotga, sevgan ishimga yo`llanma olaman”, - degan so`zlarni aytardi. Nihoyat tantanali kecha ham ochildi. Bitiruvchilarga diplom topshirish uchun O`zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Komitetining raisi Yo`Idosh Oxunboboyev tashrif buyurganlar. Nihoyat diplom berish navbatni Xadichaga kelgach, butun zal uni olqishladi, yuristlik kasbini tanlagan birinchi o`zbek qizini chin qalbdan hamma fabrikldi. U shirin orzusiga erishdi.

Xadicha institutni tamomlagach xalq sudyasi bo`lib faoliyat yuritdi. Shuningdek, 1935-yilda respublika Oliy sudi a'zoligiga saylandi. 22 yoshli Xadicha ham ayollar, ham erkaklar orasidan shunchalik ishonchga sazovor ekanligidan xursand bo`ldi va bu ishomchni oqladi.

U yangi ish joyida jinoyat sudi yuritish ishlarini olib bordi. U o`z ishini shu qadar sevar ediki, hatto o`z vaqtini ham ayamay, dam olish kunlarida ham hujjatlarni sinchkovlik bilan o`rganar, jinoyat ishlarini ipidan-ignasigacha anialardi. Bu ishlar uni zarracha ham qo`rqitmadi, aksincha unga zavqu-shavq bag`ishladi. U qiyin vaziyatlarga duch kelsa ustozi E.M.Udrisdan maslahat so`rar edi. Oliy sudda o`z bilim va malakasini oshirgach ustozlarining tavsiyasi bilan 1938-yil Moskva yuridik institute sovet jinoyat huquqi kafedrasi aspirant bo`ldi. Uning ilmiy rahbari taniqli olim, yuridik fanlari doktori A.I.Traynin edi.

U juda berilib ishladi va ilmiy ishi mavzusini ham bevosita O`bekistonning jinoyat huquqiga bag`ishladi. U tinimsiz mehnat qilib, barcha zaruriy ma'lumotlarni to`plaid, biroq ishlari endi yakunlanay deb qolganda Ulug` Vatan urushi boshlandi va shu bilan dissertatsiya ham o`z nihoyasiga yetmay qoldi.

Yoshligidan qiyinchilik bilan o`sigan, otasidan erta ayrılgan, ko`plab adolatsizliklarga duchor bo`lgan Xadicha ham bu vaziyatda ilmiy ishni nariga surib, Vatan ozodligi va mustaqilligi uchun qayerga foydam tegsa, shu yerda ishlayman degan qarorga keldi. Uni Toshkentda tashkil etilgan yuridik institutiga ishga yuborishadi, u yerda ikki yil davomida assistant bo`lib ishlagach, 1945-yilning avgustigacha jinoyat huquqi kafedrasi dotsenti vazifasini bajardi. U butun qobiliyatini, mehnatini talabalarning bilim olishiga, jinoyat huquqini mukammal egallashlariga bag`ishladi. U ta'lim bergen talabalar urush davrida frontga borishgan, vatanimizning sharaflı nomini oqlab, G`arbiy Yevropadan fashizmni yo`qotishga hissa qo`shishgan. Urushga qatnashmaganlari esa, front orqasidan turib xalq xo`jaligini tiklashga ishtirok etganlar. Xadicha Sulaymonova esa shunday shogirdlarni yetishtirgandan har doim faxlanib, ularni qo`llab-quvvatlagan.

Urush tugagach, Xadicha yanada kuchliroq ishladi, kechalari tinim bilmay qolib ketgan dissertatsiya ustida ishlar, ma'ruza tayyorlar edi. Nihoyat, u „Harbiy interventsiya va grajdalar urushi davrida O`zbekiston SSRning jinoyat qonunlari“ nomli dissertatsiyani tugatdi va 1945-yilning 20-iyulida Butunittifoq yuridik fanlar institutida dissertatsiyani himoya qilishga muvaffaq bo`ldi. Shu yilning sentabrda olima Toshkent yuridik institutining jinoyat huquqi kafedrasi mudiri qilib tayinlandi. U endi nafaqat o`zini, balki butun jamoani ham rivojlantirar, ularni yanada g`ayrat bilan ishlashlariga undar edi. Shu yillari u „Sovet davlati va huquqi“ jurnalida bir necha maqolalar ham chop ettirdi. Shu zaylda butun kuch-qudratini ilmga bag`ishlab, bir

necha ilmiy ishlarni yoqladi. Ilm olish va uni talabalarga berish yo`lida bir daqiqa ham to`xtamay faqat ishladi.

1956-yilning sentabridan boshlab professor-olimamiz Ministrlar Soveti raisi Nuriddin Muhibdinov tavsiyasi bilan Adliya vaziri lavozimiga tayinlandi. U quvonchdan o`sha kunning o`zidan ishga kirishdi. U juda kamtar va salohiyatli rahbar edi. Uni haqiqiy lider desak adashmagan bo`lamiz, chunki har bir masalani kollegiallik asosida ya`ni boshqa xodimlar bilan bamaslahat olib borgan. Bundan tashqari bir necha bor tekshiruv guruhlariga rahbarlik qilib, Andijon, Farg`ona, Samarqand, Qoraqalpog`iston viloyatlariga borganda hech qachon qattiqqo`l tekshiruvchi yo`lini tutmagan. Balki „Har qanday tekshiruv xalq sudlari ishini tashkil qilishga amaliy yordam berish, sudyalarning xato va kamchiliklarini tuzatishga xizmat qilishi kerak” , - degan so`zleri bilan sudyalarga o`zleri bilmagan narsalarini o`rgatgan. Shuningdek, u sudyalardan sud jarayonini yuksak huquqiy madaniya bilan o`tkazishni, barcha huquq normalariga qat`iy riosa qilishni har doim talab qilgan.

Xadicha Sulaymonova uchun yan bir unutilmas kun bu uning 1956-yil oktabr oyida akademik degan yuksak nomga sazovor bo`lganidir. U yuridik fanini rivojlanishidagi ulkan xizmatlari uchun O`zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a`zosi etib saylandi.

Sud ishlari va ekspertizasi bo`yicha kriminalistika sohasida ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratgan shaxs sifatida ham Xadicha Sulaymonovani ayta olamiz. Chunki, u Respublikaning yuqori organlariga Kriminalistika ilmiy-tadqiqot labaratoriyasini kengaytirish va uning bazasida sud ekspertizasi ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etish masalasini qo`ydi. Bu borada olib borilgan tinimsiz mehnatlardan so`ng 1958-yil 24-yanvarda Toshkent sud ekspertizasi ilmiy-tadqiqot instituti tashkil topdi. Bu institut hozirda akademik Xadicha Sulaymonova nomi ostida faoliyat yuritadi.

1957-yil fevraldan boshlab Xadichaning zimmasiga yanada muhim, xalq uchun manfaatli ish yuklandi. Bu sud tuzilishi haqidagi qonunlarni, grajdaniqlik, jinoyat va protsessual kodeklarni ishlab chiqish va qabul qilish masalasi edi. U bu ishlarga bor bilim va salohiyatini ishga solib bel bog`ladi va O`zbekiston SSR jinoyat va jinoyat protsessual kodeksi loyihasini tayyorlovchi guquhga ham rahbarlikni o`z zimmasiga oldi. Bir necha yillar davomida olib borilgan ilmiy va amaliy ishlardan so`ng 1959-yilning 21-mayida beshinchi chaqiriq O`zbekiston SSR Oliy Sovetining ikkinchi sessiyasi O`zbekiston SSR sud tuzulishi haqidagi qobunni qabul qildi, shu bilan birga Jinoyat va Jinoyat-protsessual

kodekslarini tasdiqladi. Bu hujjatlar 1960-yilning 1-yanvaridan boshlab kuchga kirdi.

Xadicha Sulaymonova O`zSSR Adliya vaziri lavozimida faoliyat yuritgan davrda huquqiy islohotlarni amalga oshirgani uchun 1964-yilda Respublika Oliy Sudining raisi lavozimiga tayinladi. U shunday mas'uliyatli lavozimda ishlar ekan, sud tizimini yanada takomillashtirishga kirishdi. Mahalliy sharoitni o`rganib, O`zSSR Oliy soveti Prezidiumiga, Oliy sud tarkibiga qonunchilikni kodefikatsiyalash va sistemalashtirish, sud amaliyotini umumlashtirish kabi takliflar bilan chiqdi. Shuningdek, sud ishida o`zini oqlamagan shavqatsiz jazolarga qarshi chiqib, faqatgina adolatli jazolar qo'llanilishi jamiyatda farovonlik baxsh etadi deb hisoblar edi. U bu borada ham bir necha konferensiyalarda ishtirok etdi, har bir sohada insonparvarlik prinsipini qo'lladi. Ayollar huquqlarini poymol etilishini oldini olish orasida ham o`zini ko`rsatdi.

Xadicha Sulaymonovaning siyosiy, ilmiy-pedagogik va ijtimoiy faoliyati Sovet hukumati tomonidan yuqori baholandi. 1954-yilda „Ulug` vatan urushi davridagi shavkatli mehnati uchun” medaliga sazovor bo`ldi. 1955-yilda esa ikkita „Hurmat Belgisi” ordeni bilan taqdirlandi.

Biroq, akademik olma og`ir kasallikka duchor bo`ladi. U kasallik davrida shunday deydi: „Menga hech bo`lmasa yana bir yilcha umr kerak edi, bir yil... ilmiy fikrlarimni yozib qoldirishim uchun”. Bu so`zlardan olimaning o`sha bir yilni ham o`zi uchun emas, balki ilm-fan uchun bag`ishlamoqchi bo`lganini ko`rishimiz mumkin. Afsuski, Xadicha Sulaymonova 1965-yilning 26-noyabrida og`ir kasallik oqibatida vafot etdi. U qisqa umr ko`rganiga qaramay, juda ko`plab savobli ishlarni amalga oshirdi. Hozirgi qonunchiligimiz yaratilishiga ham ulkan hissa qo`shdi.

Xulosa o`rnida aytish mumkinki, bu qadar mard, shijoatli, jasur, ilmgan chanqoq, har sohada shuhrat qozongan ayollarimiz juda oz. sovet tuzumi davrida juda ko`p qiyinchiliklarni ko`rgan Xadicha bir soniya ham ilm olishdan, izlanishdan to`xtamadi. Hayotidagi barcha qiyinchiliklarni yolg`iz o`zi yehgib o`tdi. Albatta bularni so`z bilan aytish juda oson, biroq amalda bajarish hammaning ham qo`lidan kelavermaydi. Yana bir muhim faktini aytib o`tish joizki, 2019-yilda o`tkazilgan tadqiqotlarga ko`ra, „Markaziy Osiyoning buyuk ayollari” aniqlanganda Nodira, To`maris kabi buyuk onalarimiz qatorida Xadicha Sulaymonovaning ham bo`lishi juda katta e'tirof aslida. Bu insonni qancha xotirlasak, hurmat ko`rsatsak ham shuncha oz. u nafaqat birinchi huquqshunos ayol, balki huquqshunoslik sohasida ilmiy

daraja olishga sazovor bo`lgan, davlat arbobi va buyuk murabbiy bo`lgan birinchi ayollardan sanaladi. Bu kishining yorqin xotiralari uchun Toshkent davlat yuridik universitetida „Xadicha Sulaymonova nomidagi stipendiya” ta’sis etilgan. Har yili talabalar uning hayotini targ`ib etishadi, ko`pchilik yoshlarga namuna sifatida ko`rsatishadi. Bir so`z bilan aytganda, Xadicha Sulaymonova haqiqiy o`zbekning mard va jasur, bilimli va ishbilarmon ayoli sifatida har doim qalbimizdadir...